



ZAMONAVIY VA PERSPEKTIV MODA YO'NALISHLARI ASOSIDA KIYIM MODELLARINI TANLASH VA ASOSLASH

G'ofurova Umida Tursunovna

Marg'ilon shahar 1-son politexnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi.

Omonova Nodira Nosirovna

Marg'ilon shahar 1-son politexnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi.

Toshpo'latova Odina Nematovna

Marg'ilon shahar 1-son politexnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi .

Annotatsiya: Mazkur maqola o'quv amaliyoti kasb- hunar maktabining o'quvchilariga mo'ljallangan. uslubiy ishlanmasi TTS-tarmoq ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. kadrlar tayyorlash barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirish o'quv amaliyotiga oid bilimlarining salmog'iga bog'liq. Shu sababli o'quvchilarning ushbu amaliyotdan egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Bo'lajak ishlab-chiqarish ta'limi ustalari uchun o'quv amaliyoti mavzusi bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnik shartlar texnologik talablar va yo'l -yo'riqli xarita yoritilgan. bugungi kun talablari uchun bo'yicha zaruriy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil mamlakatimiz xalqining o'sib borayotgan moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirish masalasini hal qilishda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari zimmasiga ham muhim vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun kiyimlarni modellashni mukammallashtirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish, tikuvchilik korxonalarini eng yangi jihozlar bilan ta'minlash talab qilinadi. Hozirgi vaqtda tikuvchilik ishlab chiqarishi juda keng tarmoq bo'lib, unda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning ilg'or vositalaridan, kompyuter texnikasidan, fan va texnika



yutuqlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi tikuvchi mutaxassislardan yuqori bilimli bo‘lishni, mahorat va malaka o‘rttirishni talab qiladi. Xususiy mulkchilikka keng yo‘l berilishi natijasida kichik va o‘rta korxonalar, xususan tikuvchilik korxonalari rivoj topayotganligi bu talabni yanada oshirib yuboradi.

Buyumlarni konstruksiyalash ular konstruksiyasini yaratish jarayonidan iborat. Konstruksiya buyumning haqiqiy kattalikdagi chizmasi bo‘lib, unda qirqimlar bo‘yicha detallarning tutashish joylari va tikish usullari ko‘rsatiladi.

Moda sezilarsiz o‘zgargan sari, biz doimo unda yangilik va musaffolik kiritilganini sezamiz. Bunda eskirgan modaning yangilanib borishini, hozirgi kun bilan hamnafasligini, kiyim dastlabki elementlarining zamonaviylashishini namoyon etadi.

Hozirgi zamon modasida kelajakda kutilayotgan moda elementlarining shiddatli rivojlanishini ko‘rish mumkin. Shuning uchun moda yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Zamonaviy moda maksimal ravishda qulaylikni ta‘minlashga, zamonaviy kiyimning funksional va estetik xususiyatlarining birlashib borishiga intiladi. Odatdagidek alohida buyumlar birta ansamblga birlashtirilib, zamonaviy kiyimning shakl, bichim va rang masalasini yechadi. Moda kiyim bichimi masalasining turli-tuman farq qilishi, turli shakllarning birta bichimga birlashishiga imkon beradi. Kiyim uchun matolarning ranglari zamona bilan uyg‘unlashgan. Yozga mo‘ljallangan kiyimlarda yorqin ranglar o‘z ifodasini topgan. Zamonaviy moda yo‘nalishini tahlil qilib, loyihada o‘g‘il bolalar yozgi kostyumining modeli tavsiya etiladi. Tanlangan model moda yo‘nalishiga muvoffiq.

Kiyimni loyihalash talablar dasturini tuzishdan boshlanadi. Talablar ikki guruhga ajratiladi: iste‘molchilar talablari va ishlab-chiqarish talabi. Birinchi guruhga ekspluatatsion, estetik, gigienik talablar, kiyimning tovarlik sifatiga, ko‘rinishiga oid talablar kiradi.

Ekspluatatsion talablar deganda, kiyimning vazifasiga va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliligi, ishonchliligi, shaklining bar - qarorligi tushuniladi. Estetik talablar deganda, kiyimning modaga mosligi, yangi materiallardan tikilganligi,



yangi pardozlar ishlatilganligi, iste'molchilarning estetik did - larini qondirish tushuniladi.

Gigienik talablarga kiyimning issiqlik balansi, havo o'tkazuvchanligi, ichki (kiyim ostidagi) nam-terdan yoki tashqi nam (qor-yomg'ir) ta'siridan himoyalash darajasi, yengilligi, konstruksiyasining qulayligi (kishining normal fiziologik funksiyalariga xalaqit bermasligi) kiradi. Gigienik talablar ergonomik talablarni ham o'z ichiga oladi, ergonomik talablar esa antropometrik, gigienik va psixo-fiziologik moslikka oid bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi guruhga texnologik, standartlashtirish va uning usullari, tejamkorlikdan iborat talablar kiradi. Tejamkorlik loyihalash xarajatlari, ishlab chiqarishni, texnologik, konstruktorlik va texnik jihatdan tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, iste'molchilarning undan foydalanish xarajatlari bilan xarakterlanadi.

Bolalar kiyimining asosiy talablari: oddiylik va go'zallik hisoblanadi. Kiyimni loyihalash jarayonida bolaning yoshi, kiyimni kiyish shartsharoitlari, gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. Bolalar gavdasining mutanosibligi kattalar gavdasi mutanosibligidan farq qiladi, shuning uchun bolalar kiyimining fasonlari kattalarnikini takrorlanmasligi kerak. O'g'il bolalar kiyimlari ham qulay va chiroyli bo'lishi kerak. O'g'il bolalarga ko'pincha oddiy bichimdagi kostyumchiklar, shimlar, shortiklar, kombinezonlar tikish mumkin. Maktab yoshidagi bolalar uchun shim, turli fasondagi ko'ylaklar, koketkali, koketkasiz, yoqali plankali kiyimlar kiyish tavsiya qilinadi.

Modelga tasnif: Yozgi kostyum (ko'ylak va shorti) maktab yoshidagi o'g'il bolalarga mo'ljallangan bo'lib, trikotaj matosidan tikilgan. Kostyum to'g'ri siluetli bo'lib, ko'ylak va shortidan iborat. Ko'ylak old chap bo'lagida 1 ta qoplama cho'ntak bor.

Ko'ylak old bo'lagi taqilmasi kalta, 2ta plankali bo'lib, 2ta tugma va 2ta izmada o'tkaziladi.

Yengi o'tqazma, bir chokli. Ko'ylakning yengi va bo'yin o'mizida beyka ulangan. Shorti to'g'ri shaklda.



Shorti bel qirqimiga belbog' ulangan bo'lib, elastik lenta bilan ishlov berilgan. Shortining old bo'lagida 2 ta yon chokdagi cho'ntaklar bor. Ko'ylakning etagi va shorti pochasi bukib tikilgan.

Ushbu ko'ylak va shorti kundalik kiyishga mo'ljallangan bo'lib, yozga kiyib yurishga qulay, zamonaviy moda talabiga javob beradi.

Loyihalanayotgan kiyim uchun materiallar tanlash va asoslash

Shularni inobatga olib, loyiha ishida yuqorida ko'rsatilgan barcha talablarga javob beradigan trikotaj matosidan o'g'il bolalar yozgi kostyumining yangi modellari tavsiya etiladi. Tanlangan modellar faqat estetik talablargagina emas, balki gigienik va ekspluatatsion talablarga ham muvoffiqdir.

Kiyim ishlab chiqarish avvalo, kiyimni tayyorlash uchun kerakli bo'lgan matoni tanlashdan boshlanadi. Model va uning konstruksiyasini yaratishda o'ta sifatli mahsulot olishning eng muhim shartlaridan biri, zamonaviy talablarga javob beradigan, mahsulotning konstruktiv aniqliklarini, tayyorlashda qo'llaniladigan usullar va kiyinish talablarini hisobga olgan holda to'g'ri va asoslangan mato tanlash hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'g'il bolalar yozgi kostyumi (ko'ylak va shorti) uchun asosiy mato sifatida quyidagi matolar qo'llaniladi: faqat paxtadan yoki paxtaga viskoza, lavsan aralashtirib to'qilgan trikotaj polotnolar.

Buyumlarni tayyorlash uchun qo'llaniladigan trikotaj polotnolarining assortimenti o'rilishlarining, tola tarkibining, naqshli effektining turiga qarab va fizik-mexanik xususiyatlari bo'yicha turli xil bo'ladi.

Trikotaj ichki kiyim, ust kiyim va sport uslubidagi buyumlarini tayyorlashda qo'llaniladi. Keyingi yillarda tikuvchilik tarmog'iga erkaklar, ayollar, bolalar ko'ylaklari, kostyumlari va paltolarini tayyorlash uchun o'z shaklini saqlaydigan trikotaj polotnolari ko'p miqdorda kirib keldi. Trikotaj fabrikalarida asosiy, hosila va naqsh o'rilishli bo'lgan oddiy va kam cho'ziladigan polotnolardan ichkiyim, ustkiyim va sport kiyimlari tayyorlanmoqda.



Buyumlar ishlab chiqishda ko'ndalang va tandali bir va ikki qavatli trikotaj polotnolari qo'llaniladi. Bu polotnolar tashki ko'rinishidan silliq va naqshli effektli tuzilishlarga bo'linadi. Ichki kiyimlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan silliq poltnolarga ko'ndalang to'qilgan glad, lastik va interlok, naqshli polotnolarga yupqalastikli presslangan petlyali, triko-sukno o'rilishli, zanjirli-sukno, zanjirli-triko tandali polotnolar kiradi.

Barcha trikotaj polotnalari standartlashtirilgan. Polotno ishlab chiqarishning xar bir turi davlat standarti yoki texnik shartlarda ko'rsatilgan. Ularda polotnoning sifat ko'rsatkichlari, ya'ni uning tola tarkibi, tola va ipning qalinligi, o'rilishining turlari, to'quv mashinalarining sinflari va turlari, petlya uzunligi, 50 mm. uzunlikdagi gorizontal va vertikal bo'yicha qalinligi, zichligi, uzishgacha cho'zilishining uzayishi va mustahkamligi, suvga kirishishining foizi berilgan.

Trikotajning fizik-mexanik xususiyati fakat o'rilishining turiga emas, balki material tola tarkibiga, uni tashkil etgan ipining tuzilishi va qalinligiga, material zichligi va pardozlash operatsiyalarining xarakteriga bog'liq. Trikotaj polotnolari olinadigan ipning tola turi, tuzilishi va chiziqli zichligi ularning mustahkamligini, qayishqoqligini, yemirilishga chidamliligini, havoo'tkazuvchanligini va issiqni saqlash xususiyatini, xamda qalinlik va yumshoqligini bildiradi. Ipning chizikli zichligi va trikotajning zichligi uning massasi va qalinligini tavsiflaydi. Trikotajning qalinlashuvi bilan uning issiqni saqlash xususiyati, ko'p karra cho'zilishiga va yemirilishga mustahkamligi oshadi.

Buyum konstruksiyasini ishlab chiqishda trikotajning cho'ziluvchanligini inobatga olish kerak. Buyumlarni tikish jarayonida kiyimning chok chizig'i bo'ylab tortilmasligi va differentsialli gazlama surish mexanizmli tikuv jihozlarining qo'llanilishidir. Bu mexanizmning ikkita reykasi bo'lib, mashina tepkisi ostidan matoni berib va cho'zib turadi, bu reykalarning surilishi shunday sozlanishi kerakki, tepki ostidagi mato katta tezlikda harakatlanadi, tepki ostida cho'zilishi kamayadi. Buyumga oxirgi pardoz shunday berilishi kerakki, kiyim cho'zilmasligi darkor.



Trikotajga ahamiyatsiz cho‘zish kuchi yuklangandan keyin o‘z shaklini qaytib tiklash xususiyati polotnning o‘rilishiga, to‘qilishining zichligiga va tola tarkibiga bog‘liq. Shunday qilib, loyihalanayotgan o‘g‘il bolalar yozgi kostyumining yangi modeli uchun tanlangan trikotaj matosi konstruktor-texnologik talablarga javob berishi, ya’ni, yaxshi shakllanishi, choklarning cho‘ziluvchanligi kam bo‘lishi, yaxshi dazmollanishi, tikish jarayonida qiyinchiliklar tug‘dirmasligi kerak.

FOYDADANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.X.X,Kamilova, N.K.Xamraeva „Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. O‘zR Oliy va rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Cho‘lpon”nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.- 400b.
2. Ye.B.Koblyakova , A.V.Savostiskiy, G.S.Ivleva i dr. Основы конструирования одежды. М., Легкая индустрия, 1980.- 448 s.
3. L.P. Shershneva. Конструирование женской одежды на типовые и нетиповые фигуры. М., Легкая индустрия, 1980.- 232 s.
4. Koblyakova Ye.B. i dr. Конструирование одежды с элементами САПР. М., 1985.
5. Rogova L.P. Erkaklar va bolalar ustki kiyimini konstruksiyalash asoslari. T., 1986.
6. L.F. Pershina, S.V. Petrova. Texnologiya shveytnogo proizvodstva M., Legprombytizdat, 1991
7. A.V. Savostiskiy, Ye.X. Melikov. Texnologiya shveytnykh izdeliy M., "Legkaya i pishchaya promyshlennost", 1982.-440s.
- 8.B.A.Buzov, T.A.Modestova, N.D. Alymenkova. Materialovedenie shveytnogo proizvodstva M., Legprombytizdat, 1986.-424s.
9. Jabborova M.Sh. Tikuvchilik texnologiyasi. T., «O‘qituvchi», 1989.-217b.
10. Jabborova M.Sh. Tikuvchilik texnologiyasi. T., «O‘qituvchi», 1990.-310b.
11. Izmesteva A.Ya., Yudina L.P., Umnyakov P.N. Proektirovanie predpriyatiy shveytnoy promyshlennosti. M., «Legkaya i pishchaya promyshlennost», 1983. .- 264s.



12. A.Ya. Izmesteva i dr. «Technologicheskie raschety osnovnykh sexov shveyных fabrik», М., «Legkaya industriya», 1978 y.

13. P.P. Koketkin i dr. Promyshlennaya texnologiya odejdy. Spravochnik. М., Legprombytizdat, 1988.-640s.

14. I.S. Zak, I.K. Goroxov i dr. Spravochnik po shveyному oborudovaniyu М.,Legkaya industriya, 1988.-272s.

15.I.S.Zak «Kompleksno-mexanizirovannye linii v shveyной promyshlennosti» М.,Legprombytizdat 1988 y.

16. Yu.A.Domojirov, V.P. Poluxin. Vnutriprotsessный transport shveyных predpriyatiy М., Legprombytizdat, 1987

17.Olimov Q.T, Uzoqova L.P. Shveyные mashiny.Sharq», Tashkent, 2006.